

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH  
TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA SINOV  
LABORATORIYALARI KOMPLEKSINI RIVOJLANTIRISH TO'G'RISIDA**

Respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini va eksporti hajmlarini oshirish, ularning xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarilishini ta'minlash hamda mavjud sinov va kalibrlash laboratoriylarini modernizatsiya qilish, shuningdek aholiga sifatli va xavfsiz mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Muvofiqlikni baholash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish, idoralararo va innovatsion sinov va kalibrlash laboratoriylari kompleksini rivojlantirish, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalg etish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq baholash orqali savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda "O'zstandart" agentligining;

"O'zstandart" agentligining "Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasini 2020-yil 1-yanvardan "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat korxonasiga (keyingi o'rnlarda — "UzTest" davlat korxonasi) aylantirish hamda uning muassisi etib Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutini belgilash;

"O'zstandart" agentligining "Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi vorisi etib "UzTest" davlat korxonasini belgilash;

2019-2020-yillarda Toshkent shahrida xalqaro tashkilotlarning (ISO, IEC, UNECE, EN, CODEX STAN) standartlari, talab va me'yorlariga muvofiq oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, elekrotexnika, yengil sanoat, mashinasozlik, qurilish, polimer va kimyo sanoati mahsulotlari hamda yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sinovlarini to'liq amalga oshiradigan zamonaviy sinov va nazorat laboratoriylaridan iborat "UzTest" davlat korxonasingin sinov va nazorat kompleksini tashkil etish;

"O'zstandart" agentligining **1-ilovada** nazarda tutilgan hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari davlat korxonalarini tugatish;

tugatilayotgan hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari negizida "UzTest" davlat korxonasingin hududiy filiallarini **2-ilovaga** muvofiq, "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasi hududiy filiallarini **3-ilovaga** muvofiq tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Muvofiqlikni baholash tizimini takomillashtirish, sinov va kalibrlash laboratoriyaning rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar rejasi (keyingi o'rnlarda — Kompleks chora-tadbirlar rejasi) **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga Kompleks chora-tadbirlar rejasida ko'zda tutilgan vazifalarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

3. "UzTest" davlat korxonasining sinov va nazorat kompleksi tomonidan o'zlashtiriladigan mahsulotlarni sinovdan o'tkazish yo'naliishlari **5** va **6-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar "UzTest" davlat korxonasining sinov va nazorat kompleksini tashkil etish, texnologik asbob-uskuna bilan jihozlash va modernizatsiyalash ishlarini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish loyihasini Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3790-son qaroriga muvofiq Jahan banki tomonidan 25 yil muddatga yillik 2 foiz stavkada ajratiladigan 11,6 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag';

UNI Credit Bank (Chexiya) tomonidan 7 yil muddatga yillik 2,1 foiz stavkada ajratiladigan 3,88 mln yevro miqdoridagi mablag';

xalqaro moliya institutlarining grantlari, imtiyozli kreditlari va qonun hujjatlari bilan taqiqilanmagan boshqa manbalar.

5. "O'zstandart" agentligi tizimi tashkilotlariga, istisno tariqasida, sinov, kalibrlash va qiyoslash laboratoriyaning tashkil etish doirasida 2021-yilga qadar o'z mablag'lari hisobiga import qilinadigan laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar, standart namunalar, kimyoviy reaktiv va reagentlarni xarid qilish uchun to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzishga ularni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKda ekspertizadan o'tkazish sharti bilan ruxsat etilsin.

#### *Oldingi tahririga qarang.*

6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi "UzTest" davlat korxonasining sinov va nazorat kompleksini tashkil qilish va rivojlantirish, sinov va kalibrlash laboratoriyaning modernizatsiyalash maqsadlari uchun xalqaro moliya institutlarining mablag'larini jalb etish chora-tadbirlarini ko'rsin.

*(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi PF-36-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021-y, 06/21/36/1175-son)*

7. Belgilansinki, "UzTest" davlat korxonasining sinov va nazorat kompleksi tarkibidagi sinov laboratoriyalari mahsulot sinovlarini amalga oshirish bilan birga "O'zstandart" agentligining hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Davlat sanitariya-epedimiologiya nazorati markazining buyurtmalari (ish rejalariga)ga asosan davlat nazorati bilan bog'liq sinovlarni (o'simliklar karantini xizmati va farmatsevtika mahsulotlari bundan mustasno) amalga oshiradi.

8. 2019-2020-yillarda Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti kurslarida malaka oshiradigan mutaxassislarning hududlar va ixtisosliklar bo'yicha taqsimotlari [7](#) va [8-ilovalarga](#) muvofiq tasdiqlansin.

9. "O'zstandart" agentligi mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda 2019-2020-yillar davomida hududlarning sanoat, ishlab chiqarish va eksport salohiyatidan kelib chiqib, mazkur qarorning [2-ilovasiga](#) muvofiq "UzTest" davlat korxonasining hududiy filiallarini chet el va mahalliy investorlarga realizatsiya qilish, shu jumladan ularning negizida davlat-xususiy sheriklik loyihamonini amalga oshirish choralarini ko'rsin.

10. "O'zstandart" agentligi Sog'liqni saqlash vazirligi, Veterinariya va chорvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Qurilish vazirligi bilan birgalikda:

bir oy muddatda chetdan olib kelinadigan va respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sinovlari shaffofigini ta'minlash maqsadida amaldagi standart va me'yorlarga muvofiq har bir mahsulot bo'yicha sinov dasturlarini ishlab chiqib tasdiqlasin hamda doimiy yangilab turgan holda rasmiy saytlarga joylashtirib borish tizimini yaratsin;

mahsulotlar sifat va xavfsizlik sinov ko'rsatkichlari to'liq baholangandan so'ng muvofiqlik sertifikatini rasmiy lashtirish tizimini yo'lga qo'ysin.

11. Belgilab qo'yilsinki, 2020-yil 1-yanvardan:

akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari mahsulot sinovlarini "O'zstandart" agentligi rasmiy saytida joylashtirilgan sinov dasturlari asosida o'tkazadi;

bir turdag'i mahsulotga nisbatan tasdiqlangan sinov dasturini ikkita va undan ortiq xususiy sinov laboratoriyalari to'liq xalqaro talablar asosida o'zlashtirgan taqdirda, davlat organlari tizimiga kiradigan sinov laboratoriyalari tomonidan mazkur mahsulotning sinovi faqat davlat monitoringi hamda nazorati maqsadlarida amalga oshiriladi;

mahsulot sifati va xavfsizligini tasdiqlovchi ruxsat beruvchi hujjatlar va muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirish idoraviy bo'y sunuvidan qat'i nazar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarda o'tkazilgan ijobiy sinov natijalariga asosan amalga oshiriladi;

akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari xalqaro standartlarga asosan yangi sinov uslubini o'zida joriy etsa, uch oy ichida akkreditatsiya doirasini kengaytirish majburiyatini olgan holda ushbu uslub bo'yicha muvofiqlikni baholash ishlarini amalga oshirishlariga ruxsat etiladi. Bunda, yangi sinov uslublarini qo'llashga akkreditatsiya sohasini kengaytirish uchun belgilangan tartibda taqdim etilgan buyurtma asos bo'ladi;

muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo'lgan mahsulotlar sinovini amalga oshirmaydigan va tashkilotlarning o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun tashkil etiladigan sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish o'rniiga ularning texnik jihatdan malakaliligin ma'qullah tartibi joriy etiladi.

Bunda, mazkur bandda nazarda tutilgan qoidalar o'simliklar karantini xizmati va farmatsevtika mahsulotlariga tatbiq etilmaydi.

#### 12. "O'zstandart" agentligi bir oy muddatda:

Sinov va kalibrash laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligiga qo'yilgan umumiy talablarni belgilovchi davlat standartini tasdiqlasin hamda sinov va kalibrash laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligin ma'qullah tartibi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan birgalikda respublikada hamda chet el oliy ta'lif muassasalarida standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash yo'naliishlarida ta'lif olayotgan 3 va 4-bosqich talabalari orasida tanlov o'tkazib, ularning xorijiy mamlakatlar eng ilg'or ilmiy-sinov laboratoriyalarda amaliyotini tashkillashtirish va milliy sinov va kalibrash laboratoriyalariga muddatli sharhnomalar asosida ishga jaib qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin va amalga oshirsin.

13. "O'zstandart" agentligi sinov va kalibrash laboratoriyalari ehtiyojlarini qondirish maqsadida kelgusi davr uchun xarid qilinadigan laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar, standart namunalar, kimyoviy reaktiv va reagentlar ro'yxatini elektron kooperatsiya portaliga joylashtirib borsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, "O'zstandart" agentligi, "O'zkimyosanoat" AJ va "O'zbekneftgaz" AJ import qilinayotgan laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar, standart namunalar, kimyoviy reaktiv va reagentlarni ishlab chiqarishni

mahalliy lashtirish bo'yicha 2019-yil 1-oktabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga asoslangan taklif kirtsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Sog'lioni saqlash vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va "O'zstandart" agentligining 2020-yil 1-yanvardan quyidagilarni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish haqidagi takliflari ma'qullansin:

davlat xaridlarida, birja savdolarida ishtirok etish hamda imtiyoz va preferensiyalar olish uchun korxona va tashkilotlar o'zlari taklif etayotgan mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;

import qiluvchi va mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarga muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovnii bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdorida qat'iy belgilash hamda sertifikatlashtirish idoralariga tushgan summa soliq to'lovlar to'langanidan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda taqsimlanishi;

sertifikatlashtirish idoralariga o'z brendlarini yaratish va ulardan o'rnatilgan tartibda shartnomaga asosida foydalanish amaliyotini joriy etish.

15. "O'zstandart" agentligi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda sertifikatlashtirish jarayonlarini soddashtirish hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlari, shu jumladan eksport qiluvchi korxonalarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, mahsulot namunalarini sinov va kalibrlash laboratoriylariga yetkazishda transport logistikasi tizimini joriy qilish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda kirtsin.

16. Toshkent shahar hokimligi bir hafta muddatda "UzTest" davlat korxonasining sinov va nazorat kompleksini qurish uchun zarur bo'lgan yer uchastkasini belgilangan tartibda ajratib berishni ta'minlasin.

17. "O'zstandart" agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

18. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.A. G'ulomov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari E.M. Ganiyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 15-avgust,  
PQ-4419-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-avgustdagい PQ-4419-  
son qaroriga  
1-ILOVA

**"O'zstandart" agentligining faoliyati tugatilayotgan hududiy  
sinov va sertifikatlashtirish markazlari davlat korxonalarri  
RO'YXATI**

T/r	Markazlar nomi	Manzili
1.	"Qoraqalpog'iston Respublikasi sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Nukus sh., Garezsizlik ko'chasi, 57 uy.
2.	"Andijon sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Andijon sh., Fitrat ko'chasi, 251 uy.
3.	"Buxoro sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Buxoro sh., Sanoatchilar ko'chasi 1/2 uy.
4.	"Jizzax sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Jizzax sh., M. Xusainova ko'chasi, 20-a uy.
5.	"Qashqadaryo sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Qarshi sh., Gulbog' ko'chasi, 6 uy.
6.	"Navoiy sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Navoiy sh., M. Tarobiy ko'chasi, 185 uy.
7.	"Namangan sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Namangan sh., Nodira ko'chasi, 9 uy.
8.	"Samarqand sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Samarqand sh., A. Temur ko'chasi, 147-a uy.
9.	"Sirdaryo sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Guliston sh., Sh. Rashidov ko'chasi, 24 uy.
10.	"Surxondaryo sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Termiz sh., Ibn Sino ko'chasi, 41 uy.
11.	"Farg'ona sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Farg'ona sh., M. Qosimova ko'chasi, 119 uy
12.	"Xorazm sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Urganch sh., Xonka ko'chasi, 107-a uy.
13.	"Bekobod sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Bekobod sh., Xotira ko'chasi, 116 uy.
14.	"Qo'qon sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Qo'qon sh., Istiqlol ko'chasi, 11 uy.
15.	"Olmaliq sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Olmaliq sh., Tinchlik ko'chasi, 2 uy.
16.	"Chirchiq sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi	Chirchiq sh., Mendeleyev ko'chasi, 5-a uy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-avgustdagい PQ-4419-  
son qaroriga  
2-ILOVA

**"UzTest" davlat korxonasining hududiy filiallari  
RO'YXATI**

T/r	Hududiy filiallar nomi	Laboratoriya yo'nalishlari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari Kimyo mahsulotlari

2.	Andijon filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Mashinasozlik ehtiyot va butlovchi qismlari Elektrotexnika maishiy texnika mahsulotlari
3.	Bekobod filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Metall mahsulotlari
4.	Jizzax filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Polimer va kimyo mahsulotlari
5.	Buxoro filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Qurilish mahsulotlari To‘qimachilik mahsulotlari Kimyo mahsulotlari
6.	Qashqadaryo filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Elektrotexnika maishiy texnika mahsulotlari Qurilish mahsulotlari Kimyo mahsulotlari
7.	Navoiy filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Elektrotexnika maishiy texnika mahsulotlari
8.	Namangan filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Kimyo mahsulotlari To‘qimachilik mahsulotlari
9.	Samarqand filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Avtotransport vositalari
10.	Surxondaryo filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Qurilish mahsulotlari
11.	Sirdaryo filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Kimyo mahsulotlari
12.	Farg‘ona filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi)
13.	Xorazm filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari To‘qimachilik mahsulotlari
14.	Qo‘qon filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Elektrotexnika maishiy texnika mahsulotlari
15.	Olmaliq filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Elektrotexnika maishiy texnika mahsulotlari
16.	Chirchiq filiali	Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (fizik-kimyoviy sinovi) Kimyo mahsulotlari (mineral o‘g‘itlar)

Izoh:

“UzTest” davlat korxonasining hududiy filiallari “O’zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat korxonasining hududiy filiallari binosida ijara shartnomasi asosida joylashtiriladi.

“O’zstandart” agentligi mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda sinov laboratoriylarini yo’nalishlarini xalqaro me’yorlar asosida kengaytirish va hududning rivojlanish va eksport salohiyatini inobatga olgan holda xalqaro akkreditatsiyadan o’tkazishni amalga oshiradi.

“O’zstandart” agentligi mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda 2019-2020-yillar davomida hududlarning sanoat, ishlab chiqarish va eksport salohiyatidan kelib chiqib, “UzTest” davlat korxonasining hududiy filiallarini chet ellik va mahalliy investorlarga belgilangan tartibda realizatsiya qilish, shu jumladan ularning negizida qo’shma korxonalar tashkil etishva davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish choralarini ko’radi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi va viloyatlar hokimlariga “O’zstandart” agentligi takliflariga asosan “UzTest” davlat korxonasining hududiy filiallarini chet ellik va mahalliy investorlarga qonunchilikda belgilangan tartibda realizatsiya qilish, shu jumladan ularning negizida qo’shma korxonalar tashkil etish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-avgustdagи PQ-4419-son qaroriga  
3-ILOVA

### **“O’zstandart” agentligi “O’zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat korxonasining hududiy filiallari**

#### **RO’YXATI**

T/r	Hududiy filiallar nomi	Manzili
1.	Qoraqalpog’iston Respublikasi filiali	Nukus sh., Garezsizlik ko‘chasi, 57 uy.
2.	Andijon filiali	Andijon sh., Fitrat ko‘chasi, 251 uy.
3.	Buxoro filiali	Buxoro sh., Sanoatchilar ko‘chasi, 1/2 uy.
4.	Bekobod filiali	Bekobod sh., Xotira ko‘chasi, 116 uy.
5.	Jizzax filiali	Jizzax sh., M. Xusainova ko‘chasi, 20-a uy.
6.	Qashqadaryo filiali	Qarshi sh., Gulbog‘ ko‘chasi, 6 uy.
7.	Navoiy filiali	Navoiy sh., M. Tarobiy ko‘chasi, 185 uy.
8.	Namangan filiali	Namangan sh., Nodira ko‘chasi, 9 uy.
9.	Samarqand filiali	Samarqand sh., A. Temur ko‘chasi, 147-a uy.
10.	Surxondaryo filiali	Termiz sh., Ibn Sino ko‘chasi, 41 uy.
11.	Sirdaryo filiali	Guliston sh., Sh. Rashidov ko‘chasi, 24 ♂y.
12.	Farg‘ona filiali	Farg‘ona sh., M. Qosimova ko‘chasi, 119 uy
13.	Xorazm filiali	Urganch sh., Xonka ko‘chasi, 107-a uy.
14.	Qo‘qon filiali	Qo‘qon sh., Istiqlol ko‘chasi, 11 uy.
15.	Olmaliq filiali	Olmaliq sh., Tinchlik ko‘chasi, 2 uy.
16.	Chirchiq filiali	Chirchiq sh., Mendeleyev ko‘chasi, 5-a uy.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-avgustdagи PQ-4419-son qaroriga  
4-ILOVA

### **Muvofiqlikni baholash tizimini takomillashtirish, sinov va kalibrlash laboratoriylarini rivojlantirishga doir**

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Muddati		Bajarilishi ustidan nazorat	
		boshlanish	tugash	nazorat uchun mas'ul	ko'rib chiqish muddati
<b>I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish</b>					
1.	<p>O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida” va “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonunlariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun sertifikatlashtirish hamda standartlarni qabul qilish va joriy etish jarayonlarini takomillashtirishga, milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olinishiga qaratilgan hamda xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda sifat milliy infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘srimchalarni kiritish.</p> <p>Mas'ullar: “O‘zstandart” agentligi (Sattarov), Adliya vazirligi (Davletov), Moliya vazirligi (Ishmetov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (Xodjayev), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Umurzoqov)</p>	2019-yil avgust	2020-yil aprel	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2020-yil aprel
2.	<p>Muvofiqlikni baholash sohasidagi xodimlarni sertifikatlashtirish, ekspert auditorlarni attestatsiyalashga bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro me'yorlar va talablar asosida tahlil qilish hamda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p> <p>Mas'ul: “O‘zstandart” agentligi (Sattarov)</p>	2019-yil avgust	2019-yil sentyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2019-yil oktyabr
3.	<p>Tashkilot standartlarini qo'llanilishini ixtiyoriy tusga aylantirish bo'yicha taklifni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>Mas'ul: “O‘zstandart” agentligi (Sattarov)</p>	2019-yil avgust	2019-yil oktyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2019-yil oktyabr

<b>II. Texnik jihatdan tartibga solish va muvofiqlikni baholashni takomillashtirish</b>					
4.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga mahsulotlarni olib kirish, sotish va servis xizmatini tashkil qilish (rasmiy dileri) tartibini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.  Mas’ullar: “O‘zstandart” agentligi (Sattarov), Davlat soliq qo‘mitasi (Musayev), Davlat bojxona qo‘mitasi (Azimov), Adliya vazirligi (Davletov), Savdo-sanoat palatasi (Ikramov)	2019-yil sentyabr	2020-yil noyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2020-yil dekabr
5.	Qabul qilingan texnik reglamentlar bilan qamrab olinadigan mahsulotlarni TIF TN kodi bilan belgilash tizimini yo‘lga qo‘yish.  Mas’ullar: Davlat bojxona qo‘mitasi (Azimov), “O‘zstandart” agentligi (Sattarov) va boshqa mas’ul vazirlik va idoralar	2019-yil avgust	2020-yil noyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2020-yil dekabr
6.	Respublika hududiga olib kirilayotgan mahsulotlarning xavfsizlik darajasidan kelib chiqib, ularni muvofiqligini majburiy baholash tizimini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan holda mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidaginizomni yangi tahrirda tasdiqlashni nazarda tutuvchi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.  Mas’ullar: “O‘zstandart” agentligi (Sattarov), Sog‘liqni saqlash vazirligi (Shodmonov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Umurzoqov), Savdo sanoat palatasi (Ikramov)	2019-yil avgust	2019-yil oktyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2019-yil 1-oktabr
7.	Mahsulotlarning sinovlarini to‘liqligini va shaffofligini ta’minlash maqsadida amaldagi standart va me’yorlarga muvofiq har bir mahsulot bo‘yicha sinov dasturlarini ishlab chiqish hamda doimiy yangilab turgan holda rasmiy saytlarga joylashtirib borish tizimini yaratish.	2019-yil sentyabr	Doimiy	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	Doimiy

	Mas'ullar: "O'zstandart" agentligi (Sattarov), Sog'lijni saqlash vazirligi (Shodmonov), Veterinariya va chорvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Norqobilov), Qurilish vazirligi (Zakirov)				
8.	<p>Sinov laboratoriylar kompleksini modernizatsiyalash va tashkil etish uchun zarur bo'lgan 22 million AQSh dollari mablag'ni xorijiy moliya institutlari hisobidan jalb etish choralarini ko'rish.</p> <p>Mas'ullar: "O'zstandart" agentligi (Sattarov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Umurzakov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi (Shoaxmedov)</p>	2019-yil sentyabr	2020-yil dekabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2020-yil dekabr
9.	<p>Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tibbiyot va charm sanoati mahsulotlari eksportini oshirish hamda "ziyorat" turizmini rivojlantirish maqsadida maxsus sinov laboratoriyasini tashkil etish uchun Islom taraqqiyot bankining 2,0 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'larini jalb etish choralarini qo'rsin.</p> <p>Mas'ullar: Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Umurzakov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), "O'zstandart" agentligi (Sattarov), Din ishlari bo'yicha qo'mita (Akramov), O'zbekiston musulmonlar idorasi (Alimov)</p>	2019-yil sentyabr	2020-yil dekabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2020-yil dekabr
10.	Amaldagi sanitari-gigiyenik me'yorlar va qoidalarni xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishini inobatga olgan holda ularning yaroqlilik muddatlarini o'rnatishga oid qoidalarni maqbillashtirish.	2019-yil sentyabr	2020-yil sentyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	har chorakda

	Mas'ullar: Sog'liqni saqlash vazirligi (Shodmonov), "O'zstandart" agentligi (Sattarov)				
11.	<p>Sinovlarni shaffofligini ta'minlash maqsadida mahsulot namunalarini sinov laboratoriyalarida qabul qilish jarayonida kodlashtirish tizimini joriy qilish.</p> <p>Mas'ullar: "O'zstandart" agentligi (Sattarov)</p>	2019-yil avgust	2019-yil dekabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2019-yil dekabr
12.	<p>Yangi qabul qilingan xalqaro standartlar bo'yicha mutaxassislarini onlayn o'qitish hamda qisqa muddatli ekspress ta'lim bo'yicha video-roliklarni tayyorlash va mutaxassislariga yetkazish bo'yicha tizimni yaratish.</p> <p>Mas'ul: "O'zstandart" agentligi (Sattarov)</p>	2020-yil yanvar	Doimiy	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	Doimiy
13.	<p>Sinov natijalarini xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash maqsadida laboratoriyalarni ISO/IEC 17025 standartiga muvofiq ILAC belgisidan foydalanish sharti bilan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>Mas'ullar: "O'zstandart" agentligi (Sattarov), Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), tegishli vazirlik va idoralar</p>	2019-yil sentyabr	2019-yil oktyabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2019-yil oktyabr
14.	<p>Xalqaro akkreditatsiyadan o'tayotgan sinov laboratoriyalari bir vaqtning o'zida milliy akkreditatsiyadan o'tish orqali xalqaro standart ISO/MEK 17025 talablari bo'yicha kompetentligi tasdiqlanishi amalga oshirilishi, bunda milliy akkreditatsiya uchun to'lovlar esa xizmatning tannarxi darajasidan oshirilmay amalga oshirilishini belgilab beruvchi talablarni ishlab chiqib amaliyotga kiritish.</p> <p>Mas'ullar: "O'zstandart" agentligi (Sattarov)</p>	2019-yil avgust	2019-yil dekabr	Vazirlar Mahkamasi (A. Sultonov)	2019-yil dekabr

